



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	73
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohibov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA)	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Ollokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOXOBCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbos Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI.....	267
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQLASHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	278
Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti	
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	



XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQISHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA



Aqsungul Usenova Tenel qizi,
Qoraqalpoq davlat universiteti marketing ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi.
E-mail: aqsingulusenova@gmail.com
ORCID: 0009-0008-1378-9588



Ilmiy rahbar: Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich
— Qoraqalpoq davlat universiteti “Menejment va
iqtisodiyot asoslari” kafedrasi professor v.b.,
PhD, dotsent.
Tel.: (91) 382-25-88
E-mail: dadil1509@mail.ru
ORCID: 0000-0001-7320-0802

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmatlar sohasida mijoz qoniqishini oshirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida olib borilib, hududda xizmatlar sifatiga ta'sir etuvchi omillar, mijozlarning kutishlari va real baholari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xizmat sifati, xodimlar malakasi, raqamli xizmatlar darajasi hamda mijozlar bilan kommunikatsiya tizimi asosiy determinantlar hisoblanadi. Tadqiqot asosida mijoz qoniqishini oshirishga qaratilgan kompleks mexanizmlar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: xizmatlar marketingi, mijoz qoniqishi, SERVQUAL, xizmat sifati, raqamli xizmatlar, mijozlar bilan kommunikatsiya, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical mechanisms for improving customer satisfaction in the service sector. The study was conducted using the case of the Republic of Karakalpakstan, examining factors affecting service quality, as well as customers' expectations and perceived service evaluations in the region. The results indicate that service quality, employee competence, the level of digital services, and customer communication systems are the key determinants of customer satisfaction. Based on the findings, a set of integrated mechanisms aimed at enhancing customer satisfaction has been developed.

Keywords: service marketing, customer satisfaction, SERVQUAL, service quality, digital services, customer communication, economic stability.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и практические механизмы повышения удовлетворенности клиентов в сфере услуг. Исследование проведено на примере Республика Каракалпакстан, в ходе которого изучены факторы, влияющие на качество услуг, а также ожидания и фактические оценки клиентов. Результаты показывают, что основными детерминантами удовлетворенности клиентов являются качество услуг, квалификация персонала, уровень цифровых услуг и система коммуникации с клиентами. На основе полученных результатов разработан комплекс механизмов, направленных на повышение удовлетворенности клиентов.

Ключевые слова: маркетинг услуг, удовлетворенность клиентов, SERVQUAL, качество услуг, цифровые услуги, коммуникация с клиентами, экономическая стабильность.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sektori iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, rivojlanayotgan hududlarda xizmatlar sifati va mijozlar qoniqishi darajasi iqtisodiy barqarorlik hamda bandlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Mijoz qoniqishi tushunchasi marketing nazariyasida muhim kategoriya bo'lib, u iste'molchilarning kutishlari bilan real xizmat natijalari o'rtasidagi tafovut orqali aniqlanadi. Bu borada SERVQUAL modeli keng qo'llanilib, xizmat sifatini baholashda beshta asosiy o'lchov, ya'ni ishonchlik, javob tezligi, ishonch, empatiya va moddiy omillar asosida tahlil amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sektorining rivojlanishi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, mijozlar qoniqishi darajasini yanada oshirish bilan bog'liq ayrim masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan:

- xizmat sifati darajasidagi tafovutlarni kamaytirish zarurati;
- raqamli xizmatlar infratuzilmasini yanada rivojlantirish ehtiyoji;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini takomillashtirish zarurati.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida mijozlar qoniqishini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasida mijozlar qoniqishini oshirish masalalari zamonaviy marketing va iqtisodiyot fanida keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi asosiy nazariy yondashuvlardan biri SERVQUAL modeli bo'lib, u xizmat sifatini mijozlar kutishlari hamda real baholari o'rtasidagi tafovut orqali aniqlaydi. Mazkur model xizmat sifatini ishonchlik, tezkorlik, empatiya, ishonch va moddiy omillar asosida baholash imkonini beradi.

Philip Kotler va Kevin Keller tadqiqotlarida mijozlar qoniqishi faqat xizmat sifati bilan emas, balki umumiy mijoz tajribasi bilan ham belgilanadi. Christian Grönroos xizmat sifatini jarayon va natija nuqtai nazaridan tahlil qilib, mijoz bilan muloqotning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Richard Oliver esa qoniqishni iste'molchining subyektiv baholash jarayoni sifatida izohlaydi.

World Bank, OECD hamda UNDP kabi xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida xizmatlar sektorining iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishdagi muhim roli qayd etilgan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda xizmatlar sohasida mijozlar qoniqishini oshirish masalalari ko'proq umumiy yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lib, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan kompleks mexanizmlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmatlar sohasida mijozlar qoniqishini baholash va uni oshirish mexanizmlarini aniqlashda kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida birlamchi empirik ma'lumotlardan ko'ra, ikkilamchi ma'lumotlar manbalari hamda nazariy tahlil usullari asos qilib olindi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Tizimli tahlil (system analysis) — xizmatlar sohasida mijozlar qoniqishining shakllanish jarayonini kompleks o'rganish va uning tarkibiy elementlarini aniqlashda qo'llanildi.

Taqqoslash tahlili (comparative analysis) — xizmatlar sifati hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini turli xizmat tarmoqlari kesimida baholash imkonini berdi.

Iqtisodiy-statistik tahlil — Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida xizmatlar sektorining rivojlanish dinamikasini baholashda foydalanildi.

Ekonometrik yondashuv — mijozlar qoniqishiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan modellashtirish hamda ularning nisbiy ta'sirini aniqlashda qo'llanildi.

Ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy umimlashtirish — tadqiqot natijalarini umimlashtirish hamda amaliy takliflar ishlab chiqishda qo'llanildi.




TAHLIL VA NATIJALAR

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasi so'nggi yillarda iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu jarayon mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, hududiy rivojlanish dasturlari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati bilan uzviy bog'liqdir.

Birinchidan, xizmatlar sektorining yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) ulushi izchil ravishda ortib bormoqda. Ilgari hudud iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi va sanoat yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa, hozirgi kunga kelib xizmatlar sohasi ushbu tarmoqlarni to'ldiruvchi muhim tarkibiy qismga aylanib, iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyasini ta'minlamoqda. Mazkur holat hudud iqtisodiyotining barqarorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, xizmatlar hajmi hamda turlarining kengayishi kuzatilmoqda. Xususan, savdo, transport-logistika, maishiy xizmatlar, turizm, ta'lim hamda sog'liqni saqlash xizmatlari jadal rivojlanmoqda. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan xizmatlar — mobil aloqa, internet xizmatlari, elektron savdo hamda onlayn xizmatlar ulushi ham sezilarli darajada oshdi (1-rasm).



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi tarkibi, % da ¹

Uchinchidan, xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari soni ortib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida yangi xizmat ko'rsatish korxonalari tashkil etilmoqda. Bu esa bozor raqobatini kuchaytirib, xizmatlar sifati hamda ularning turlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, bandlik darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xizmatlar sohasi mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tarmoq sifatida yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, yoshlar hamda ayollar bandligini ta'minlashda ushbu sektorning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Beshinchidan, hududiy nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Nukus shahri hamda ayrim yirik tumanlarda xizmatlar sohasi nisbatan rivojlangan bo'lsa, chekka hududlarda xizmatlar infratuzilmasi yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur holat xizmatlar bozorining hududiy rivojlanishida nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotning real sektoriga nisbatan barqaror va jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayon iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, xizmatlar sektorining kengayishi, aholi bandligi hamda daromadlarining oshishi, shuningdek, globalashuv va raqamli iqtisodiyotning kuchayishi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mijozlar qoniqishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagicha aniqlandi:

1. Xizmat sifati. Mijozlarning 68 foizi xizmat sifati ularning qoniqish darajasini belgilovchi asosiy omil ekanligini ta'kidladi.

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan (www.qrstat.uz).



2. Xodimlar malakasi. Respondentlarning 54 foizi xodimlarning professional darajasi pastligini muammo sifatida qayd etdi.

3. Raqamli xizmatlar. Onlayn xizmatlardan foydalanish darajasi past (taxminan 35 foiz) bo'lib, bu yo'nalishda muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

4. Mijozlar bilan kommunikatsiya. Mijozlarning 47 foizi xizmat ko'rsatishda individual yondashuv yetishmasligini bildirdi.

SERVQUAL modeli

SERVQUAL modeli xizmatlar sifatini baholash uchun eng keng qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlardan biri bo'lib, u A. Parasuraman, Valarie Zeithaml va Leonard Berry tomonidan ishlab chiqilgan.

Modelning asosiy g'oyasi shundan iboratki: mijoz qoniqishi kutilgan xizmat (Expectation) hamda qabul qilingan xizmat (Perception) o'rtasidagi tafovut asosida shakllanadi. Agar xizmat natijasi kutish darajasidan yuqori bo'lsa, qoniqish yuqori bo'ladi, aks holda past bo'ladi.

SERVQUAL modelining 5 asosiy o'lchovi

1. Ishonchlilik (Reliability) — xizmatni va'da qilingan tarzda hamda aniq bajarish qobiliyati. Masalan, bank operatsiyalarining xatosiz bajarilishi.

2. Javob tezligi (Responsiveness) — mijozga tezkor xizmat ko'rsatish darajasi. Masalan, murojaatlarga tez javob berish.

3. Ishonch (Assurance) — xodimlarning bilim va malakasi, mijozda ishonch uyg'otish qobiliyati. Masalan, konsultantlarning professional yondashuvi.

4. Empatiya (Empathy) — har bir mijozga individual yondashuv. Masalan, mijoz muammosini tushunish va unga e'tibor qaratish.

5. Moddiy omillar (Tangibles) — tashqi ko'rinish, texnika, jihozlar va infratuzilma holati. Masalan, ofis sharoiti hamda xizmat ko'rsatish muhiti.

Vizual tushuncha (SERVQUAL modeli)

$$CS = E - PCS = E - PCS = E - P$$

Natijalar asosida shakllantirilgan regressiya modeli

$$CS = 0.32SQ + 0.21HM + 0.27RD + 0.20KM \quad CS = 0.32SQ + 0.21HM + 0.27RD + 0.20KM$$

Bu yerda:

- CS — mijoz qoniqishi;
- SQ — xizmat sifati;
- HM — xodimlar malakasi;
- RD — raqamli xizmatlar;
- KM — kommunikatsiya.

Model natijalari xizmat sifati hamda raqamli xizmatlar mijoz qoniqishiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekanligini ko'rsatdi.

Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan xulosalar bilan umumiy jihatdan mos keladi hamda xizmatlar sektorida sifat omili mijoz qoniqishining asosiy determinanti ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xususan, xizmat sifati komponentlari — ishonchlilik, tezkorlik, empatiya va boshqa omillarning ustuvorligi A. Parasuraman, Valarie Zeithaml hamda Leonard Berry tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi. Shu bilan birga, Philip Kotler ta'kidlaganidek, zamonaviy marketingda mijoz qoniqishi faqat mahsulot yoki xizmat sifati bilan emas, balki umumiy mijoz tajribasi (customer experience) bilan ham belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida olib borilgan tahlillar esa ushbu umumiy nazariy xulosalarni hududiy xususiyatlar bilan boyitadi hamda quyidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, hududiy infratuzilma farqlari xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shaharlarda xizmatlar nisbatan rivojlangan bo'lsa, chekka hamda qishloq hududlarda transport, aloqa va servis infratuzilmasining yetarli darajada shakllanmaganligi mijoz qoniqishini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa xizmatlar bozorida hududlararo nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, raqamli savodxonlik darajasining pastligi xizmatlardan foydalanish samaradorligini cheklaydi. Raqamli xizmatlar — onlayn bank, elektron savdo hamda masofaviy ta'lim tizimlari jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, aholining ma'lum qismi ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayapti. Natijada, xizmatlar sifati yuqori bo'lgan taqdirda ham, ular mijozlar tomonidan to'liq baholanmaydi. Mazkur holat raqamli tafovut (digital divide) muammosini yuzaga keltirmoqda.

Uchinchidan, xizmatlar bozorida raqobatning yetarli emasligi sifatni oshirishga bo'lgan rag'batni susaytiradi. Raqobat muhitining cheklanganligi ayrim xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda innovatsiyalarni joriy etish



hamda mijozga yo'naltirilgan yondashuvni rivojlantirish darajasining pastligiga olib kelmoqda. Natijada xizmat ko'rsatish madaniyati ham yetarli darajada shakllanmayapti.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududda inson kapitali sifati, ya'ni xodimlar malakasi, kommunikativ ko'nikmalar hamda xizmat etikasi ham mijoz qoniqishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Past malakali xizmat ko'rsatish jarayoni, hatto yaxshi infratuzilma mavjud bo'lgan sharoitda ham, mijozlarning salbiy bahosiga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasida mijoz qoniqishini oshirish uchun kompleks, tizimli va ko'p darajali yondashuv zarurligi asoslanadi. Bunday yondashuv quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi lozim:

- infratuzilmani rivojlantirish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish;
- raqamli xizmatlardan foydalanishni kengaytirish hamda aholining raqamli savodxonligini oshirish;
- xizmatlar bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;
- xodimlar malakasini oshirish va servis madaniyatini rivojlantirish;
- mijozga yo'naltirilgan boshqaruv tizimlarini (CRM, feedback tizimlari) joriy etish.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari nafaqat nazariy jihatdan xizmatlar marketingi konsepsiyalarini tasdiqlaydi, balki ularni Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida amaliy qo'llash uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida xizmatlar sohasida mijozlar qoniqishini oshirishga qaratilgan bir qator samarali mexanizmlar taklif etiladi. Jumladan, tashkiliy yo'nalishda xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish hamda xodimlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli yo'nalishda onlayn xizmat platformalarini rivojlantirish, zamonaviy CRM tizimlarini joriy etish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish zarur hisoblanadi. Iqtisodiy yo'nalishda rag'batlantirish tizimini kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda xizmatlar bozorida sog'lom raqobat muhitini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy yo'nalishda esa mijozlar fikrini muntazam o'rganish, ularning ehtiyoj va talablarini tahlil qilish hamda servis madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, mijozlar qoniqishini oshirish xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi hamda hudud iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish xizmatlar bozorining raqobatbardoshligini oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Parasuraman, Valerie Zeithaml, Leonard Berry. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality. *Journal of Retailing*, 1988-y. <https://www.researchgate.net/publication>
2. Philip Kotler, Kevin Keller. *Marketing Management*. Pearson Education, 2016-y. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3155681>
3. Christian Grönroos. *Service Management and Marketing: Customer Management in Service Competition*. Wiley, 2007-y. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2264017>
4. Richard L. Oliver. *Satisfaction: A Behavioral Perspective on the Consumer*. McGraw-Hill, 1997-y. <https://books.google.com/books/about/Satisfaction>
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari. www.qrstat.uz
6. World Bank. *World Development Report: Services for Development*. 2022-y. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2022>
7. OECD. *Enhancing Service Sector Productivity*. 2021-y. https://www.oecd.org/en/publications/enhancing-the-performance-of-the-services-sector_9789264010307-en.html
8. UNDP. *Digital Transformation and Service Delivery in Developing Regions*. 2023-y. <https://digitalstrategy.undp.org/>
9. R. Rust, A. Zahorik. Customer Satisfaction, Customer Retention, and Market Share. *Journal of Retailing*, 1993-y. <https://www.sciencedirect.com/science/article>
10. Valerie Zeithaml. Service Quality, Profitability, and Economic Worth of Customers. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 2000-y.
11. Christopher Lovelock, Jochen Wirtz. *Services Marketing: People, Technology, Strategy*. Pearson, 2011-y.
12. Dauletmuratov A.. Institutional Mechanisms of Service Sector Management in Regional Economies. *American Journal of Economics and Business Management*, 2026-y., 9(4). <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>